

“MASNAVIYI MA'NAVIY” ASARI HIKOYATLARIDA RAMZIY-MAJOZIY OBRAZLAR

Boboqulova Gavhar Kamoliddin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek
tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistranti gavharboboqulova49@gmail.com
990247214*

Annotatsiya: *Maqola Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asaridagi ramziy-majoziy obrazlarning tahliliga bag‘ishlangan. Mazkur maqolada asarning asosiy ramziy obrazlari – nay, sham, parvona, daryo, dengiz va hayvonlar tasvirlari alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, ilohiy ishq tushunchasining Rumiyning asarlarida tutgan markaziy o‘rni va uning inson ruhiyatini yuksaltirishdagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada Rumiyning asarlarida ishqni ilohiy haqiqatga erishish vositasi sifatida ko‘rsatilishi, shuningdek, sham va oshiq obrazlari orqali bu g‘oyani chuqur talqin qilinishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Ramziy obrazlar, majoziy tahlil, ilohiy ishq, nafs, ruhiy poklanish, ma’naviy yuksalish, ma’rifat.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу символично-образных образов в произведении Румий “Маснави Маънави”. В данной статье анализируются основные символические образы произведения – образы флейты, свечи, пропеллера, реки, моря и животных. Также подчеркивается центральная роль концепции божественной любви в творчестве Румий и ее значение в поднятии человеческого духа. В статье подчеркивается, что в творчестве Румий любовь показана как средство достижения божественной истины, а также глубокая интерпретация этой идеи через образы свечи и влюбленного.*

Ключевые слова: *Символические образы, образный анализ, божественная любовь, похоть, духовное очищение, духовное вознесение, просветление.*

Abstract: *The article is devoted to the analysis of symbolic and figurative images in Rumi’s work “Masnaviyi Ma’naviy”. This article analyzes the main symbolic images of the work-flute, candle, propeller, river, sea and animal images. Also, the central role of the concept of divine love in Rumi’s works and its importance in raising the human spirit are highlighted. The article emphasizes that in Rumi’s works, love is shown as a means of reaching the divine truth, as well as a deep interpretation of this idea through the images of the candle and the lover.*

Key words: *Symbolic images, figurative analysis, divine love, lust, spiritual purification, spiritual ascension, enlightenment.*

Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asari Sharq adabiyotining buyuk yodgorliklaridan biri bo‘lib, tasavvuf falsafasi va ma’rifat yo‘lini badiiy asarda aks ettirgan. “Masnaviyi ma’naviy” mohiyati jihatdan Qur’oni karimning o‘ziga xos

she'riy tafsiri va hadisi shariflarning sharhidan, talqinidan iborat. Asarda Qur'on oyatlaridan 760 o'rinda iqtibos olingan, 703 ta hadisdan 745 o'rinda foydalanilgan. "Masnaviyi ma'naviy"ning botiniy mohiyati shahodat kalimasining – ya'ni, "La ilaha illallah"ning turli-tuman hikoyatlar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar zamiriga singdirilgan zikrlari yig'indisidan iboratdir; uning bosh maqsadi – ana shu hikoyatlar, latifalar, masallar, rivoyatlar, hikmatlar vositasida tavhidni – Allohning yagonaligini, sherigi yo'qligini zikr etish va tasdiqlashdir[5].

Asarda Rumi insonning ilohiy haqiqatga intilishini, nafs bilan kurashini va ruhiy poklanish yo'lidagi iztiroblarini ramziy-majoziy obrazlar orqali ifodalaydi. "Masnaviyi mas'naviy" hikoyatlarida ramziy obrazlar insonning ichki olamini va uning ilohiy haqiqatga erishish yo'lidagi izlanishlarini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rumi obrazlar orqali inson hayotidagi turli vaziyatlarni tasavvufiy tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi va o'z o'quvchilarini ruhiy kamolot sari yo'naltiradi. Bu obrazlar tasavvufdagi eng muhim mavzular – ishq, sabr, poklik va nafs bilan kurashni ochib beradi.

Asar nay haqida hikoya bilan boshlanadi. Bu obraz asarning birinchi qatoridayoq paydo bo'lib, insonning ilohiy manbaga bo'lgan ehtiyojini eslatadi.

Masnviy: Bishnav az nay chun hikoyat mekunad,

Az judoyiho shikoyat mekunad.

Tarjima: Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay,

Ayriliqlardan shikoyat aylagay.

Lisoniy tarjima: Tingla, nay qanday hikoyatlarni so'zlaydi: u firoqdan, g'urbatdan shikoyat qilayotir [2:22].

Nay inson ruhining Allohdan ajralganini, dunyo hayoti esa bu ayriliqning natijasida paydo bo'lgan dardni ramziy ifodalaydi. Nayning jarangi insonning ilohiy ishqqa bo'lgan intilishidir. Bu obraz insonning o'z ma'naviy ildizlariga qaytishi zarurligini eslatadi. Inson ruhi Allohdan ajralib, "Allohga qaytar ekan", ruh yuksalib, kamol topib borishi lozim. "Osmonlaru yerdagi narsalar Allohniki. Ishlar Allohga qaytarilajak" [3:64]. Inson ruhi Haq taoloni tanimog'i, mohiyatlar mohiyati, haqiqatlar haqiqatiga yetib borishi uchun yuksalib, irfon nuridan bahramand bo'lib turishi lozim.

Mavlononing maqsadi insonni g'ofillikdan uyg'otib, o'z mohiyatini teran anglashga undash, uning faqat moddiyat asiri bo'lib qolmasligi va haqiqiy ilm va hikmatning boshi bo'lgan Allohni tanishga, uning jamoliga yetishish uchun chaqirishdir. Buning uchun esa vujudimizdagi hayvoniylik sifatlari mag'lub bo'lib, insoniylik sifatlari o'z aksini ko'rsatishi lozim bo'ladi. Jaloliddin Rumi ta'kidlaganidek, "Insonning ichi hurriyat olami [1:94]"ga aylanadi.

Sham va parvona – Sham ma'shuqni, parvona oshiqni anglatadi. Parvona o'zini shamga bag'ishlagani kabi inson ham ilohiy ishq yo'lida o'zini qurbon qilishi lozim.

Daryo va dengiz – Rumiylar asarlarida daryo insonning ma'naviy izlanishlarini, dengiz esa ilohiy haqiqatning chegarasizligini ifodalaydi. Daryo hayot oqimining, insonning ma'naviy sayohatining ramzi sifatida ko'riladi. Rumiylar daryoni tinimsiz oqayotgan va haqiqatni izlayotgan ruh sifatida tasvirlaydi.

Rumiylar hayvon obrazlarini majoziy ma'noda qo'llab, inson xulq-atvorini ramziy shaklda ifodalaydi. Masalan: Sher – kuch-qudrat va adolat timsolidir. Sher insonning ichki jasoratini va haqiqatni himoya qilishga bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Sher ko'pincha zulmga qarshi kurashuvchi sifatida tasvirlanadi.

Eshak – jaholat va nafsni anglatadi. Rumiylar hikoyatlarida eshak dunyoviy manfaatlarga haddan ziyod bog'lanishni tanqid qilish uchun ishlatiladi. Dunyoviy orzular va nafsni ifodalaydi. Rumiylar hikoyatlarida eshak ilmsizlik, dangasalik va moddiy dunyoga haddan tashqari bog'lanishning ramzi sifatida ko'rsatiladi.

Qushlar – ma'naviy ozodlikning ramzi. Ayniqsa, Simurg qushi ilohiy haqiqatga yetishish timsolidir. "Qushlar qiroli" tasavvufda haqiqiy maqsadga yetishish timsoli sifatida talqin qilinadi. Qushlar ko'pincha ruhning erkinlikka intilishini ifodalaydi. Masalan, jonning tan zindonidan qutulib, ilohiy olamga ko'tarilishi ko'pincha qushlar orqali tasvirlanadi.

Tulkilar hiyla va makkorlikni ramziy anglatadi. Ularning obrazlari odatda insonning yomon xulqlaridan qochish zaruratini aks ettiradi. Jaloliddin Rumiylarning "Masnaviyi ma'naviy" asarida tulki va sher bilan bog'liq hikoya keltiriladi. Bu hikoya insonning hiylakorlik va aqlni noto'g'ri yo'lida ishlatish oqibatlarini tasvirlaydi. Hikoyada tulki hiylasi orqali kuchli sherni yengadi. Bu aqlning jismoniy kuchdan ustunligini ko'rsatadi. Sher o'z kuchiga haddan tashqari ishonganligi sababli aldangan va halok bo'lgan. Bu odamlarning o'zini haddan tashqari ulug'lab, ehtiyotkorlikni unutish oqibatlarini eslatadi. Sher suvdagi aksni haqiqiy dushman deb o'ylaydi, bu esa o'z his-tuyg'ulari va noto'g'ri qarashlarning halokatli bo'lishini anglatadi. Ushbu hikoya insonning hiylakorlik va o'ziga haddan ziyod ishonishining qanchalik xavfli bo'lishi ta'kidlangan.

Rumiylarning "Masnaviyi ma'naviy" asari hikoyatlarida insonning ichki kurashlari va ruhiy holatlari ramziy obrazlar orqali ifodalangan. Masalan, nafs va ruh obrazlari. Mavlono Rumiylar insonni ilohiy haqiqatga olib boruvchi ruh va unga to'siq bo'luvchi nafs o'rtasidagi kurashni ramziy shaklda ko'rsatadi. Ruh poklanish va ma'rifat sari intilsa, nafs insonni pastlikka tortadi.

Oshiq va ma'shuq – ilohiy ishqni ifodalaydi. Oshiq ya'ni inson o'z ma'shuqiga – Allohga yetishish yo'lida dunyoviy orzularidan voz kechadi.

Podshoh va faqir – dunyoviy boylik va ruhiy kamtarlik o'rtasidagi qarama-qarshilikni aks ettiradi. Mavlono Rumiylar ko'pincha podshoh obrazini nafsga qaramlikni tanqid qilish vositasi sifatida ishlatadi, faqir esa ilohiy donolikni anglatadi.

Rumiylar asarlarining asosiy mavzularidan biri ishqdir. Uning asarlarida ishq ilohiy haqiqatga erishish vositasi sifatida talqin etiladi: Sham va oshiq – o'z jonini Alloh

yo'lida qurbon qilishning ramzidir. Sham ilohiy nurni anglatadi, oshiq esa bu nurni quchish uchun barcha narsani qurbon qiladi. Sham Allohning ilohiy nurini, oshiq esa bu nurga yetishni istagan insonni ifodalaydi. Oshiqning o'zini yoqib qurbon qilishi tasavvufning asosiy g'oyalardan biri – ishq orqali ruhiy poklanishni aks ettiradi.

Masnaviy: Har kiro oma zi ishqe chok shud,

O' zi hirsu jumla aybe pok shud.

Tarjima: Kimsa egni ishqdin gar chokdir,

Pokdir u, hirsu aybdin pokdir.

Lisoniy tarjima: Har kimning libosi ishq tufayli pora-pora bo'lgan esa, demak, u jamiyki hirsu havodan, aybu nuqsondan pokdir [2:47].

Mavlono Rumi obrazlari universaldir va barcha davrlar va xalqlar uchun tushunarli bo'lib qoladi. U tabiat va insoniylikni o'z asarida o'zaro bog'lab, ma'naviy haqiqatlarni zamon va makondan mustaqil tarzda tushuntiradi. Ushbu asar tasavvufning falsafiy va ma'naviy tamoyillarini ifodalaydi va insonni ruhiy poklanishga, ilohiy ishq va ma'rifat sari yo'naltiradi. Rumi insonning bu dunyodagi maqsadini Allohga qaytish va haqiqatni topish sifatida talqin etadi. Tabiat, hayvonlar, odamlar va boshqa timsollar orqali ma'naviy saboqlar beriladi. Masalan, nay inson ruhining ilohiy haqiqatdan uzoqlashganini, ammo unga qaytish istagini ramziy anglatadi.

Jaloliddin Rumi "Masnaviyi ma'naviy" asarida ramziy va majoziy obrazlar orqali inson hayotining chuqur ma'naviy mazmunlarini yoritib bergan. Bu obrazlar tasavvufiy g'oyalarning badiiy ifodasini ta'minlab, insonni ma'naviy yuksalishga undaydi. Asardagi har bir ramz va majoziy obraz o'quvchini ruhiy dunyosini tahlil qilishga va ilohiy haqiqatni izlashga chorlaydi. Shu sababli "Masnaviyi ma'naviy" insoniyat uchun adabiy va ma'naviy meros sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadur. – T.: Yangi Asr Avlodi, 2016. – 160 b.
2. Румий, Жалолндин. Маънавий маснавий: куллийет. – Т.: ИПапк, 1999. – 368 б.
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 4-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. – 668 б.
4. <https://cyberleninka.ru/> Babayev M. Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asaridagi masallarda ilon obrazi.
5. <https://cyberleninka.ru/> Mardonova M. Jaloliddin Rumi "Ma'naviy masnaviy" asarida irfon va falsafa uyg'unligi.